

FIZIKA FANI YUTUQLARI

Matyakubova Nasiba

Hazorasp tuman 41-maktab Fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada talabalarning ijodiy fikrlarini faollashtirishi va har birmasalada erkin ilmiy munosabatda bo'lish. Ilm - bu o'qish, o'rganish hamda hayotiy tajriba asosida orttirilgan bilim va malakalar majmuasi ekanligi. Davrning dolzarb sohalariga ko'proq e'tibor berish, fanning yutuqlarini amaliy hayotga ko'proq va unumliroq tadbiiq etish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ilm-fan, fikr, erkin fikr, bilim va malaka,ixtirochilik, ratsionalizatorlik, axborot sivilizatsiyasi, fizika jurnali.

“...Bugungi sharoitda eng ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu sohada qabul qilingan Milliy dasturga muvofiq, telekommunikatsiya texnologiyalarini, aloqa tizimlari va infratuzilmasini yanada rivojlantirishimiz, informatsion tizimlar komplekslari va «Elektron hukumat» axborot bazasini shakllantirishimiz kerak...”- deganda Yurtboshimiz Sh.Miromonovichning naqadar haq ekanligini ko'ramiz.

Fan - dunyo haqidagi ob'ektiv bilimlar majmuasidir. Tarixiy taraqqiyot jarayonida fan jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlariga aylanib boradi. Fanning vazifasi tabiat, jamiyat va tafakkur haqidagi yangi bilimlar hosil qilishdan to ularni amaliyotga joriy qilishgacha bo'lgan faoliyatini o'z ichiga oladi. Kishi organgani va ruhiyati hamda intellektual salohiyatini atrof-muhit, bepoyon olam sirlari va rivojlanish mexanizmlarini o'rganib, ulardan kishilik jamiyatining ravnaqi uchun foydalanish ilm-fanning bevosita maqsadidir.Fanning paydo bo'lishi kishilik jamiyatining paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liq. Dastlabki bilimlar amaliy xarakterga ega bo'lgan. Taraqqiyot davom etishi asosida qadimgi zamon mutafakkirlari tabiat, jamiyat va tafakkurni goho birgaliqda, goho ayrim-ayrim ravishda bayon etishga urina boshladilar. Dunyoni bir butun, deb ifodalovchi tushunchalar, isbotlash usuli paydo bo'ldi. Elinizm davrida Yevklid, Arximed, Ptolomey tomonidan geometriya, mexanika, astronomiya sohasida dastlabki tizimlar yaratildi. O'rta asrlarda fan rivojiga Shark va O'rta Osiyo olimlari ulkan hissa qo'shdilar. Ular qadimgi fan yutuqlarini, ilmiy asarlarni saqlash, tarjima qilish va ularni tarqatish masalasiga katta e'tibor berdilar. Shuningdek,ular fanni yangi yutuqlar bilan boyitdilar, yangi kashfiyotlar qildilar.O'rta Osiyoning buyuk olimlari ilm-fanni yangi tarmoqlarini yaratdilar va yangi qonun-qoidalarni kashf etganlar. Muhammad Muso al-Xorazmiy matematika, asronomiya, mexanika, tarix, geografiya kabi sohalarda mustahkam poydevor yaratdi.Bugungi kundagi algoritm termini ham ulug' olim Muhammad Muso Al-Xorazmiy nomi bilan bevosita bog'likdir. Axmad Mirvaziy esa o'sha paytdagi trigonometriya fani rivojiga katga hissa qo'shdi. Abu Nasr Forobiy falsafiy fikrlarni rivojlantirdi, komil inson tarbiyasiga katta e'tibor berdi. "Fozil odamlar shahri" asari



orqali yaxshilik haqidagi ta'limotlarni tizimlashtirdi, musiqaning matematik nazariyasini yaratdi. Hamid Xo'jandiy, Umar Xayyomlar kub tenglamalar nazariyasini yanada rivojlantirdi. Mahmud Qoshg'ariy o'z davrining qomusiy olimi edi. U "Devoni lug'ati turk" asarini yaratdi. Abu Rayhon Beruniy ham qomusiy ilmlar sohibi bo'lgan. U geodeziya, mineralogiya, farmokologiya, kimyo, tarix va shu kabi ko'pgina fanlar bilan shug'ullandi va ular rivojiga munosib hissa ko'shdi. Abu Ali ibn Sinoning tibbiy ilmi bo'yicha ta'limoti dunyoga mashxur bo'ldi va meditsina termini ham ulug' olim nomidan kelib chiqqan. Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, G'iyosiddin Koshiy, Qozizoda Rumiylar sonlar nazariyasini yanada mukammallashtirdi, falakiyot ilmini rivojlantirib, Mirzo Ulug'bek munajjimlar xudosi Uroniya yoshdan joy oldi. Mirzo Ulug'bek va Al-Farg'oniylar nomiga ikkita yulduz qo'yilishi Vatandosh olimlarimizni Yer kurrasidan tortib, to Samogacha ma'lum va mashxur qildi. Bular orqali esa o'zbek xalqi ham dunyoga mashhur bo'ldi.

O'zbekiston fizika jurnali" ilmiy jurnalining asoschisi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi hisoblanadi. Jurnal 1957-yildan chiqa boshlagan. 2006-yil 22-dekabrda O'zbekiston Respublikasi matbuot va axborot agentligidan qayta ro'yxatdan o'tgan. Guvohnoma № 0044. (ISSN 1025-8817 - bosma nashr, ISSN 2181-077X - elektron nashr). "O'zbekiston fizika jurnali" fizika sohasiga ixtisoslashtirilgan respublikadagi yagona maxsus jurnal hisoblanib, fizika fanining turli yo'nalishlaridagi ishlanmalari va barcha yo'nalishdagi tadqiqotlarni qamrab oladi:

01 Nazariy va matematik fizika. Fizikaviy jarayonlarni modellashtirish. (Mas'ul muharrirlar - professor Abdullaev F.Kh., akademik Musakhanov M.M.)

02 Kondensatsiyalangan moddalar fizikasi. Nanofizika va nanotexnologiya. (Mas'ul muharrirlar - professor Tashmetov M.Yu., professor Ibragimova E.M.)

03 Fizik elektronika va plazma fizikasi. (Mas'ul muharrir - professor Kh.B. Ashurov)

04 Atom va yadro fizikasi, elementar zarralar fizikasi. (Mas'ul muharrir - akademik Yuldashev B.S.)

05 Optika va spektroskopiya. Lazer fizikasi. Nochiziqli optika. (Mas'ul muharrir - akademik Bakhranov S.A.)

06 Molekulyar fizika va issiqlik fizikasi. (Mas'ul muharrir - professor Mirzaev S.Z.)

07 Biofizika va tibbiy fizika. Kimyoviy fizika. (Mas'ul muharrir - professor Oksengendler B.L.)

08 Materialshunoslik. (Mas'ul muharrir - professor Kurbanov M.Sh.)

09 Astronomiya. Astrofizika va kosmologiya. (Mas'ul muharrir - professor Ahmedov B.J.)

Nashr tili. Rus, ingliz, o'zbek.

Jurnalning maqsad va vazifasi. Ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlarining doktorantlari va magistrleri, mutaxassislar hamda ilmiy xodimlarni fizika sohasidagi yangiliklar, yutuqlar va so'nggi ishlanmalar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish. Mutaxassisligi. Jurnalda fizika sohasida olib borilayotgan original ilmiy



tadqiqotlar bo'yicha tayyorlangan maqolalar chop etiladi. Jurnalning aloxida xususiyatlari. Jurnal fizika fanining asosiy yo'nalishlaridagi barcha tadqiqotlarni qamrab oladi. Respublika institutlari bazasida o'tkazilgan respublikadagi xalqaro va maxalliy, simpozium va konferensiyalar materiallariga bag'ishlangan maxsus sonlar chop etiladi. Tarqatish hududi - Jurnal Ion plazma va lazer texnologiyalari instituti tomonidan faqat obunachilarga yetkaziladi. O'zbekiston fizika jurnali WorldCat, elibrary.ru, JINR ilmiy-texnik kutubxonasi, Germaniya Milliy kutubxonasi Technischer Informations bibliothek (TIB), Internet Open Access Catalog (OPAC), Xalqaro yadro axborot tizimi (INIS) tomonidan indekslanadi. Moliyalashtirish manbai - budjetdan tashqari mablag'lar va obunachilar hisobidan.

Bosh muharrir: Lutpullaev Sagdulla Lutpullaevich Bobomurot Juraevich Ahmedov

Tug'ilgan kuni: 4-iyun 1963 yil.

Tug'ilgan joyi: Samarqand.

Yo'nalishi: fizika-matematika

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti, laboratoriya mudiri (2016-yildan - h.v.) Fizika-matematika fanlari doktori, professor Ilm sohasi Relyativistik astrofizika va nazariy fizika 1985 yilda A. Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetini tamomlagan. 2012 yil "Mehnat Shuhrati" ordeni bilan taqdirlangan. Ahmedov yangi xalqaro miqiyosda tan olingan relyativistik astrofizika ilmiy maktabini yaratgan, 200dan ortiq ilmiy ishlar, 3 ta monografiya muallifi. 2 ta fan doktori, 8 ta fan nomzodi va falsafa doktori PhD tayyorlagan. 2018 yilda Butun Jahon Fanlar Akademiyasi (TWAS) xaqiqiy a'ziligiga saylangan. 2018 yilda Scopus xalqaloro ma'lumotlar bazasi bo'yicha "Yil olimi", 2017 yilda Web of Science xalqaloro ma'lumotlar bazasi bo'yicha "Eng yuqori havola qilingan muallif" («Highly Cited Author»). 2018 yildan beri Springer nashrining "Arabian Journal of Mathematics" muharriri.

